

SAID RIZO ALIZODANING “SARF-U NAHV” KITOBINI XUSUSIDA

Muhammadiyev Ibrohim Ibodullozoda

SamDU filologiya fakulteti

Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi

II kurs magistranti

ibrohimmuhamadiyev1@gmail.com

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada o‘tgan asrning yetuk shaxslaridan biri, jadid, ma‘rifatparvar, tilshunos, muallim, muharrir umuman olganda, xalqimizning asl farzandi bo‘lgan Saidrizo Alizoda asaridagi ayrim fikr-mulohazalar, qarashlar, grammatik vositalarning Alizoda davridagi qo‘llanilishi kabilar o‘rganilgan. “Sarf-u nahvning” kelajakdagi grammatik qo‘llanma va darsliklar uchun poydevor vazifasini o‘taganligi to‘g‘risida ham fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sarf, nahv, ismi mushtaq, muzore’, ma‘dula, alifiya, basit, tasg‘ir, ma‘rifat-u nakira, ziro‘h, bero‘h mo‘tariza muayyiza.

KIRISH

Ma‘lumki, o‘rta asrlarda va undan keyin ham Oktabr inqilobiga qadar barcha madrasalarda arab grammatikasi va arab lug‘ati o‘rganganilib boshqa tillar shu tilni o‘rganish uchun vosita sifatida qo‘llanilgan. Oktabr inqilobidan so‘ng yangi tuzumdagi maktablar tashkil etilgandan keyin rus maktablarning o‘zbek va tojik sinflarida Muhammadrasul Rasulning 1911- yilda yozilib, 1917-yilgacha 3 marta qayta nashrdan chiqqan ”Рохбарн форси” kitobi bo‘yicha dars bera boshlandi. 1920 yilda Buxoroda barcha dasturlar (eski va yangilari ham) talab darajasida emas deb topilib, ta‘limda bo‘shliq paydo bo‘lishiga olib keldi. Faqatgina 1926-yilda yozilgan Said Rizo Alizodaning ”Sarf va nahv” kitobi chop etilib, paydo bo‘lgan bo‘shliqni birinchilardan bo‘lib to‘ldira oldi.

ASOSIY QISM

Said Rizo Alizoda yetuk tilshunos sifatida o‘zining ”Sarf va nahv” kitobi bilan grammatikaning me‘yoriy qoidalarini yangi davr maktablarining boshlang‘ich va o‘rta bosqichlariga hadya qildi. (3-sinf oquvchilariga mo‘ljallangan) Garchand bu kitob yuz foiz mukammal bo‘lmasada, davr nuqtai nazaridan baland qiymatga ega edi hamda bugungi davr tilshunosligida ham ayrim qoidalari bilan tahsinga sazovordir.

Sarf va nahv asarining debochasida Said Rizo Alizoda quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi.

Agarchi har bir tilning bir qancha sheva va lahjalari bo'lsada, har bir millatning rasmiy va adabiy tili bitta bo'ladi. Shu adabiy tilda ular o'zaro muloqot jarayonini amalga oshiradi, ta'lim va tarbiya ishlarini olib boradilar.

Xuddi shunday, tojik xalqi ham bir necha sheva va lahjali til bo'lib, bu uning geografik joylashuviga bog'liqdir. Bu tilning grammatik qoidalari Eron va Afg'oniston grammatikalaridan tubdan farq qilmaydi. Kitobat tarzi va grammatik qoidalari deyarli bir xil. Chunonchi, ming yillardan beri buyuk adib va allomalarimiz Buxoro, Samarqand Xujand, Istaravshan va boshqa qadimiy shaharlarimizda ana shu tilda ilm qilmoqdalar, kitobat va adabiyot yozmoqdalar.

Ushbu asarni ta'lif etishda biz ham qo'ldan kelgancha, adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya etishga fikrlarimizni tushunarli va sodda bayon etishga harakat qildik.

Ushbu sarf nahv birinchilardan bo'lib chop etilayotganligi sababli bir qancha xato va kamchiliklari bo'lishi tabiiy. Siz o'quvchilardan xato va kamchiliklar uchun oldindan uzur so'raymiz va kelajakda har bir ahli ilm ushbu kamchilikni bartaraf etishda o'z hissasini qo'shishini xohlab qolardik.¹

Muallif ushbu asarni yozishgacha arab, fors, turk, fransuz va rus me'yoriy grammatika qoidalarini puxta o'rganib chiqqan. Asar davr tilshunoslik me'yorlariga mos ravishda va talablarga javob beradigan tarzda yozilishiga harakat qilgan.

Said Rizo Alizodaning "Sarf va nahv" asari uch debocha va uch fasldan iborat. Kitobning birinchi faslida sarf (morfologiya), nahv (sintaksis), harf, kalima (so'z), jumla (gap), alifbo, hurufi munfasila va muttasila, hurufi musavvata va somita, hijo (bo'g'in), harakat, sakun, tashdid, hamza va alif, "vov" i ma'dula, va "yo" i alifiya kabilarning ta'rifi keltirilgan.

Muallif birinchilardan bo'lib o'z asarining ikkinchi bobida davr tilshunoslik qonun-qoidalaridan kelib chiqib 9 ta so'z turkumiga grammatik sharh berdi. Ularni arab tilshunosligidagidek 3 qismga nomlar fe'l va harflarga, ya'ni nomlar fe'llar va yordamchilarga ajratdi. Said Rizo Alizodaning bu ishi o'zidan avvalgi tilshunoslik ishlariga ya'ni Abu Ali ibn Sino Nosiruddin tusiy shams qaysi rozi Mahmud Omuli, Abdurahmon Jomiy atoulloh Husayniy, xoja Hasan Nisoriy, Vojidalii Mujmalii kabi til dasturlarini yaratgan tilshunoslarning ishlariga biroz muvofiq kelmas edi.

Saidrizo Alizodaning ot va fe'l haqidagi bergan yangi ma'lumotlari e'tiborga molik bo'lib, o'z davrida tahsinga sazovor bo'lgan. Muallif otning barcha turlari ismi xos-u om, ya'ni turdosh otlar va atoqli otlar, ismi zot va ma'ni aniq va mavhum otlar ziro'h va bero'h jonli va jonsiz, ismi mufrad va jam yakka va jamlovchi kabi turlarni aniqlab ular haqida batafsil tushuntirib o'tishga harakat qiladi. Xuddi shunday muallif uning yana bir necha turlari masalan, ismi jomid-u mushtaq, basit-u murakkab, zamon

¹ Саидризо Ализода "Сарф ва нахв" Душанбе 2006. "Девичтич" 2006

va maʼkon, jamlovchi otlar(ismi jomeʼ) tasgʻir, maʼrifat-u nakira va ularning ishlatish holatlari yuzasidan oʻzining fikrlarini bildirib oʻtgan.

Asarning eʼtiborga molik maʼlumotlari yana bogʻlovchi va feʼl mavzularining tushuntirilishida uchraydi. Muallif bogʻlovchilarni ham bir necha turga boʻladi. Masalan, shaxsiy, munfasil, muttasil, mavsuliy, istifhomiyy, ibhomiyy, isnodiy va feʼliy. Ayni mana shu bogʻlovchilarning ishlatilish oʻrni haqida ham oʻz fikrlarini bildirib oʻtadi.

Feʼl bobida keltirilgan maʼlumotlarda Alizoda feʼlning maʼnoviy va tuzilish jihatini sodda va tushunarli qilib tushuntirib berishga harakat qiladi. U feʼl mavzusini tushuntirishni avval harakat nomidan boshlaydi va harakat nomini masdari doli va toli asli va taxfifi, kabi turlarga ajratadi. Kitobning sintaksis bobida muallif oʻzining sodda va qoʻshma gaplar haqidagi qarashlarini keltiradi, ot kesim va feʼl kesimga mos ravishda jummalarni ham ikkiga: jumlai feʼli va jumlai ismi kabilarga ajratadi. Jumlai mujarrada va jumlai muzayyanakabilarni sharhlab beradi. Va shuni taʼkidlaydiki ergashgan qoʻshma gaplar ikki qismdan iborat boʻladi, ular bosh va ergash gaplardir.

Sodda gaplar oʻz-oʻzidan maʼlumki bitta xabarni yetkazadi va bitta kesimlik shakliga ega boladi. Masalan, "Dushanbe Markazi Tojikiston ast", yaʼni (Dushanbe Tojikistonning markazidir)¹

Bu gap grammatik jihatdan shakllangan boʻlib qoʻshimcha izoh talab qilmaydi.

Bosh gapning maʼnosi ergash gap orqali toʻlaqonli anglashiladi. Masalan, "Kimki oʻzini dono deb bilsa, undan qoch"²

Bu yerda "kimki oʻzini dono deb bilsa"-bosh gap, "undan qoch"- ergash gap. Koʻrib turganimizdek Saidrizo Alizoda gaplarning sintaktik mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. U shart ergash gapli qoʻshma gaplarni jumlayi shartiya va jazoiya kabi turlari doirasida tushuntirib shunday deydi: Gapning shartni bildirgan qismi jumlayi shartiya va bu jumlaning mashruti boʻlgan gap esa jazoiya deb nomlanadi.

Misol uchun, "Агар ба хондан бикӯшӣ, туро дӯст доранд" -(agar yaxshi oʻqisang, seni yaxshi koʻradilar.)³

Qoʻshma gaplarning turlari haqida gapirar ekan Alizoda moʻtariza deb nomlanuvchi aʼzolar (oʻzimizning oʻzbek tilida kiritmalarga toʻgʻri keladi) haqida ham aytib oʻtadi. Kiritmalar matnda soʻz, soʻz birikmasi va gap holida ifodalanadi. Soʻzlovchining oʻzi ifoda etayotgan fikriga ishonch, gumon achinish kabi munosabatlarini ifodalovchi sintaktik birliklar kiritmalar ekanligini yaxshi bilamiz. Kirish soʻzlar gapning, xususan matnning umumiy mazmuniga aloqador boʻlsada,

¹ Саидризо Ализода " Сарф ва нахв" Душанбе 2006. " Девочтич" 2000

² Саидризо Ализода " Сарф ва нахв" Душанбе 2006. " Девочтич" 2000

³ Саидризо Ализода " Сарф ва нахв" Душанбе 2006. " Девочтич" 2000

gapning biror bo‘lagi bilan hokim- tobe aloqasiga kirishmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo‘laklaridan yozuvda vergul, tire, bazan qavslar bilan, talaffuzda esa, kichik tuhtam bilan ajratiladi. Kiritma qurilmaning o‘rni ham gap tarkibida qat’iy. U asosiy fikrga qo‘shimcha, ilova fikrni ifodalaganligi bois gap avvalida kela olmaydi, chunki asosiy fikr boshlanmasdan turib ilova fikrni berish noo‘rin. Shuningdek, kiritma, odatda, gap oxirida ham bo‘lmaydi.

Kiritma gapning yana bir xususiyati uning yig‘iq (kesimdangina iborat) bo‘lmasligi: O‘sha yosh bolani (u ota-onasiz qolgan edi) boyga qarol qilib berishdi

Jumlayi mo‘tariza shunday gapki, sintaktik tahlilga olinmaydi.

Гар бихандам (вон пас аз умре аст) гўянд захрханд,

В-ар бигирям (в-ин баҳри рўзе аст) гўянд хун гирйй.

(Анварй)¹

Alizoda kesimi uyushib kelgan sodda gapni bog‘langan qo‘shma gap deb biladi va unga quyidagicha ta’rif beradi. "Jumlayi muntazama shunday jumlaki, bir nechta jinsdosh jumalardan tashkil topadi.

Masalan: Пайи маслиҳат мажлис оростанд,

Нишастанду гуфтанду бархостанд.

(Фирдавсй)²

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek avvalgi til dasturlariga o‘xshab Said Rizo Alizodaning ”Sarf va nahv” kitobida sintaksis bobiga biroz e’tibor kam berilgan va undagi termin va atamalarga ham yetarlicha tavsif keltirilmagan. Bu esa, albatta, Said Rizo Alizoda asaridan oldingi asarlarda kelgan kamchilikning takror ko‘zga ko‘rinishiga sabab bo‘ldi.

Alizodaning buyuk xizmatlaridan yana biri punktuatsiya sohasida namoyon bo‘ladi. Uning sarf va nahv asari ta’lif etilmagunga qadar (Oktabr inqilobigacha) o‘z davrida bu sohaga juda kam e’tibor berilgan, hatto tinish belgilari ba’zi istisno hollarga ko‘ra to‘laqonli qo‘llanilmagan. Faqatgina Sadridin Ayniyning ” Tahzib us- sibyon” Mirzo Sirojiddin Hakimning ” Tuhafi ahli Buxoro” asrlarida qo‘llanilib u ham bo‘lsa noo‘rin va g‘alat edi. Muallif asarda 9 ta tinish belgisini quyidagicha sanab o‘tadi: sakta (vergul) , nuqta bo sakta (nuqtali vergul), ikki nuqta, ishorati istifhom (so‘roq belgisi), ishorati nido (undov belgisi), foriqa (tire), alomati mo‘tariza (qavs), muayyiza (qo‘shirnoq).

¹ Саидризо Ализода ” Сарф ва нахв” Душанбе 2006. " Девочтич" 2000

² Саидризо Ализода ” Сарф ва нахв” Душанбе 2006. " Девочтич" 2000

XULOSA

Barchamizga ma'lumki, Sadriddin Ayniy yoshlarni muntazam qo'llab-quvvatlagan va ilm fan fidoiylarini qattiq hurmat qilardi. Shu boisdan "Sarf va Nahv" ni ham o'rganib chiqib, unga taqriz yozib, "Ovozi Tojik" gazetasida chop ettirdi. Maqolada shundan yozilgan edi: - "Bu kitob debochada keltirilganidek, bu mavzuda yozilgan ilk kitoblardan biridir. Binobarin, uning ba'zi bir kamchilik va nuqsonlariga ko'z yumish mumkin.¹ B. Niyozmuhammadov ham kitob haqida o'z qarashlarini bayon o'tib ketadi: "Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida "Sarf-u nahv" kitobi katta o'rin egallaydi, umuman bu asarning yaratilishi tojik xalqi tilshinosligida katt biurilish yasadi.²

Keyingi yillarda adabiy tilning bir qancha yo'nalishlari til ta'rixi, sheva, uslubshunoslik va boshqalar tadqiq etilmoqda. Darsliklar yildan yilga takomillashib, rivojlanayapti. Aytish mumkinki bularning barchasi mustahkam poydevor katta mehnatlar va izlanishlar samarasidir. Kitobning oxirida muallif tomonidan gaplarning sintaktik va morfologik tahlili keltirilgani asarning muvaffaqiyatlaridan yana biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ф. Ализода " Сайид Ризо Ализода" Тошкент. "ABU MATBUOT-KONSALT" 2011
2. Ф. Ализода "Сайид Ризо Али- Заде" Москва. 2015
3. С. Айний "Куллиёт" 11- жилд, 2- китоб, "Ирфон" 1964
4. Журн " Шўълаи инқилоб" 1919,1920
5. "Шарқи Сурх" 1954. Н10
6. Х.Мирзозода, Н. Маъсумӣ. Ю. Бобоев "Адабиёти совети" (10- синфлар учун дарслик)
7. Х. Ирфонва бошқалар. "Саидризо Ализода-маърифатпарвар, журналист, олим"
8. Деҳоти. А. Куллиёт, 5-жилд "Ирфон", 1966

¹ Садриддин Айний. Куллиёт. Ж-116 2- китоб, сах- 346

² Б. Н. Ниёзмухаммедов " Баъзе масъалаҳои забони адабии ҳозираи тоҷик" нашрияти " Ирфон"1965 сах 82

Adabiyotlar:

1. Саидризо Ализода " Сарф ва нахв" Душанбе 2006. " Девочтич" 2006
2. Садриддин Айний. Куллиёт. Ж-116 2- китоб, сах- 346
3. Б. Н. Ниёзмухаммедов " Баъзе масъалаҳои забони адабии ҳозираи тоҷик" нашрияти " Ирфон"1965 сах 82
4. С. Атобуллоев нашриёти "Ирфон" Душанбе 1976